



UDK: 37.013:17.022.1

**Zulayxa NAZAROVA,**  
Falsafa fanlari doktori (PhD) dotsent,  
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston  
E-mail:zulayxanazarova70@gmail.com

Professor, p.f.d A.Ibragimov taqrizi asosida

#### MA'NAVY-AXLOQIY IDENTITET TUSHUNCHASINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy identitetni shakllantirish hamda uning ilmiy-metodologik asoslari, shaxsning o'zini anglashi, o'z qadriyatlarini, ijtimoiy roli, madaniy mansubligi va ma'naviy qarashlarini idrok etishi bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-axloqiy identitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, fidoyilik va insonparvarlik sifatleri, kasbiy etika, pedagogik burch, ma'naviy mas'uliyat, mezon.

#### НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются формирование духовно-нравственной идентичности у будущих учителей и её научно-методологические основы. Также анализируются понятия, связанные с самосознанием личности, её ценностями, социальной ролью, культурной принадлежностью и осмыслением духовных взглядов.

**Ключевые слова:** духовно-нравственная идентичность, милосердие, ответственность, самоотверженность, гуманистические качества, профессиональная этика, педагогический долг, нравственная ответственность, критерий.

#### SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF SPIRITUAL AND MORAL IDENTITY

Annotation

This article analyzes the formation of spiritual and moral identity in future teachers and its scientific and methodological foundations. It also examines concepts related to an individual's self-awareness, personal values, social role, cultural belonging, and the understanding of their spiritual views.

**Keywords:** spiritual and moral identity, compassion, responsibility, dedication, humanistic qualities, professional ethics, pedagogical duty, moral responsibility, criteria.

**Kirish.** Ma'naviy-axloqiy identitet tushunchasi ijtimoiy fanlarda shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar shaxsiy kamoloti va kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonida ushbu tushunchaning ilmiy-metodologik asoslarini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi mutaxassis, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini targ'ib qiluvchi, o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi ma'naviy yetakchi hisoblanadi. Identitet (identity) tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning o'zini anglashi, o'z qadriyatlarini, ijtimoiy roli, madaniy mansubligi va ma'naviy qarashlarini idrok etishi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Ma'naviy-axloqiy identitet esa umumiy identitetning muhim tarkibiy qismi bo'lib, insonning ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyat, vijdon, adolat, halollik va insonparvarlik tamoyillariga bo'lgan munosabati asosida shakllanadi. Bu tushuncha shaxsning axloqiy o'zligini anglashi,

o'z xatti-harakatlarini ma'naviy me'yorlar asosida baholashi va jamiyatda ma'naviy barqaror pozitsiyaga ega bo'lishini ifodalaydi. Falsafiy nuqtai nazardan identitet insonning "Men kimman?" degan savoliga ongli ravishda javob topish jarayoni sifatida tushuniladi. Psixologiyada esa u shaxsning barqaror o'zlik tasavvuri, hayotiy maqsadlari, e'tiqodlari va ijtimoiy tajribasi asosida shakllanadigan ichki tizim sifatida talqin etiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan ma'naviy-axloqiy identitetni shaxsning ma'naviy qadriyatlar tizimiga asoslangan barqaror ichki pozitsiyasi sifatida ta'riflash mumkin. U insonning o'z hayotida axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini, ijtimoiy munosabatlarda mas'uliyatli va ongli ishtirokini hamda kasbiy faoliyatida ma'naviy tamoyillarga amal qilishini belgilaydi. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilarda mazkur identitetni shakllantirish nafaqat shaxsiy kamolot, balki ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

	Birinchidan, gumanistik pedagogika nazariyasi ushbu jarayonda asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Gumanistik yondashuvga ko'ra, inson shaxsi oily qadriyat hisoblanadi va uning ma'naviy kamoloti ta'lim jarayonining markazida turishi lozim. Bu nuqtai nazarda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy identiteti uning kasbiy faoliyatining mazmunini belgilaydi;
	Ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy yondashuv ma'naviy-axloqiy identitetning jamiyat, madaniyat va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq ekanligini asoslaydi. Inson o'z ma'naviy o'zligini shakllantirishda milliy an'analar, ma'naviy meros, umuminsoniy

Ma'naviy-axloqiy identitetning ilmiy-metodologik asoslarini tadqiq qilishda bir qator nazariy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega	qadriyatlar hamda ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy identitetni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi Uchinchidan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi ma'naviy axloqiy identitetni rivojlantirishda individual yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Chunki har bir insonning ma'naviy dunyosi, qadriyatlarga munosabati, hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlari o'ziga xosdir. Ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlari qiziqishlari, ma'naviy intilishlari hisobga olinsa, ularning identiteti barqaror va mazmunli shakllanadi.
---	--

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqotlarda ma'naviy-axloqiy identitet shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy tajribasi va emotsional-irodaviy sifatleri bilan uzviy bog'liq ekanligi qayd etiladi. Eriksonning identitet nazariyasida shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri sifatida axloqiy va ijtimoiy o'zlikni shakllantirish jarayoni ko'rsatiladi. Uning fikricha, inson hayot davomida turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirib, o'z qadriyatlari va maqsadlarini aniqlab boradi, bu esa identitetning mustahkamlanishiga xizmat qiladi [1].

Ma'naviy-axloqiy identitetning tarkibiy tuzilmasiga qator muhim komponentlar kiradi. Ular orasida ma'naviy qadriyatlarga yo'nalganlik, axloqiy ong, ma'naviy histuyg'ular, ijtimoiy mas'uliyat, o'z-o'zini baholash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Ushbu komponentlar o'zaro bog'liq holda shaxsning umumiy ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. Amaliyotdan misol sifatida ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, volontyorlik faoliyati, ijtimoiy loyihalar va tarbiyaviy dasturlarni keltirish mumkin. Masalan, talabalarining jamiyatga xizmat qilishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi ularda mehr-oqibat, mas'uliyat, fidoyilik va insonparvarlik sifatlarini rivojlantiradi. Bu esa ularning ma'naviy-axloqiy identitetini amaliyotda mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy identitetga ega bo'lgan o'qituvchilarda ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatiladi, tarbiyaviy ta'simi yuqori darajada amalga oshiradi va ta'lim muhitini ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirishda faol ishtirok etadi. Shu bois, mazkur tushunchaning ilmiy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu nuqtada ma'naviy-axloqiy identitetni rivojlantirish jarayonini tizimli yondashuv asosida tashkil etish zarurligi kelib chiqadi. Ya'ni mazkur jarayonni ta'lim, tarbiya, ijtimoiy faoliyat, shaxsiy rivojlanish va kasbiy tayyorgarlikning o'zaro bog'liq tizimi sifatida qarash lozim. Bunda pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar, loyiha asosida o'qitish va interaktiv ta'lim shakllaridan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Ma'naviy-axloqiy identitet tushunchasining ilmiy-metodologik asoslari uni shaxs rivojlanishining markaziy komponenti sifatida talqin qilishga imkon beradi. U pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar uyg'unligida shakllanadi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-ma'naviy kamoloti uchun muhim nazariy va amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy identitetning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish ushbu tushunchaning ichki mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ilmiy manbalarda mazkur identitet ko'p qirrali tizim sifatida qaralib, u kognitiv (bilishga oid), aksiologik (qadriyatlarga oid), motivatsion, emotsional va bixevioral (xulq-atvoriga oid) komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiradi. Kognitiv

Ilmiy manbalarda mazkur jarayonni odatda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

komponent insonning axloqiy me'yorlar, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy ideallar haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Bunda shaxsning yaxshi va yomon, adolat va zulm, halollik va nohalollik kabi tushunchalarni ongli anglashi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilar uchun mazkur komponent kasbiy etika, pedagogik burch va ma'naviy mas'uliyatni chuqur tushunish bilan bog'liqdir.

Aksiologik komponent shaxsning ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini, ularni hayotiy mezon sifatida qabul qilish darajasini ifodalaydi. Agar inson ma'naviy qadriyatlarni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilsa, uning xulq-atvori ham shu qadriyatlarga muvofiq shakllanadi. Masalan, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy faoliyatning ma'naviy mezoniga aylanishi lozim.

Motivatsion komponent shaxsning ma'naviy-axloqiy faoliyatga bo'lgan ichki intilishini aks ettiradi. Bu komponent insonning axloqiy qarorlar qabul qilishga tayyorligi, ma'naviy faollikka intilishi va ijtimoiy mas'uliyatni his etishi bilan bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarda mazkur motivatsiyaning shakllanishi ularning o'quvchilar tarbiyasida fidoyi va mas'uliyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Emotsional komponent insonning ma'naviy histuyg'ulari, vijdon, hamdardlik, rahm-shafqat, insoniylik va mas'uliyat hissini o'z ichiga oladi. Ma'naviy-axloqiy identitetga ega bo'lgan shaxs nafaqat axloqiy me'yorlarni biladi, balki ularni his qiladi va ichki ehtiyoj sifatida qabul qiladi. Masalan, o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan mehr-oqibatli, sabr-toqatli va adolatli munosabati uning ma'naviy identitet darajasini ko'rsatadi.

Bixevioral komponent esa insonning amaliy xulq-atvorida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining qanday namoyon bo'lishini ifodalaydi. Ya'ni, inson o'z bilimlari va qadriyatlarini amaliyotda qanday qo'llayotgani mazkur komponent orqali namoyon bo'ladi. Agar bo'lajak o'qituvchi axloqiy me'yorlarni bilibgina qolmay, ularni kundalik faoliyatida namoyon etsa, uning ma'naviy-axloqiy identiteti barqaror deb hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy identitetning shakllanish mexanizmlari ham ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin tutadi. Bu jarayon insonning ijtimoiylashuvi, tarbiyasi, ta'limi, shaxsiy tajribasi va refleksiya orqali amalga oshadi. Xususan, ijtimoiy muhit, oila, ta'lim muassasasi, ommaviy axborot vositalari va madaniy makon shaxsning ma'naviy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda refleksiya mexanizmining o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Refleksiya insonning o'z xatti-harakatlari, qarorlari va qadriyatlarini tahlil qilishi, ularni qayta baholashi va ma'naviy kamolotga intilishini ta'minlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiyaning rivojlantirish ularning kasbiy-ma'naviy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy identitetning rivojlanish bosqichlari ham nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega.



Birinchi bosqichda inson axloqiy tushunchalar bilan tanishadi, ikkinchi bosqichda ularni qabul qiladi, uchinchi bosqichda esa ularni shaxsiy qadriyatiga aylantiradi. To'rtinchi bosqichda esa mazkur qadriyatlar insonning kundalik xulq-atvorida barqaror namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ushbu bosqichlarning izchil amalga oshishi ularning kasbiy va ma'naviy kamolotini ta'minlaydi. Ayniqsa, pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish mazkur identitetning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Amaliyotda kuzatiladiki, ma'naviy-axloqiy identiteti rivojlangan o'qituvchilar ta'lim jarayonida namunaviy xulq-atvor namoyon etadi, o'quvchilar uchun ma'naviy namunaga aylanadi va jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Masalan, adolatli baholash, o'quvchilarga nisbatan hurmat va mas'uliyatli munosabat, pedagogik etikaga amal qilish kabi omillar o'qituvchining ma'naviy identitetini amalda ko'rsatadi.

**Tahlil va natijalar.** Globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy identitet masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, madaniy ta'sirlarning xilma-xilligi va yoshlar ongiga turli g'oyalarning kirib kelishi bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy barqarorligini ta'minlashni muhim vazifaga aylantirmoqda. Shu bois, pedagogik ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy tarbiyani tizimli yo'lga qo'yish zarur.

Shunday qilib, ma'naviy-axloqiy identitetning tarkibiy tuzilmasi, shakllanish mexanizmlari va rivojlanish bosqichlari uni shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichi sifatida baholashga asos yaratadi. Ushbu jarayonning ilmiy-metodologik tahlili bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy barqarorlikni shakllantirishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi va keyingi qismlarda uning amaliy va pedagogik jihatlari chuqur yoritilishi uchun zamin yaratadi. Ma'naviy-axloqiy identitetning pedagogik jarayondagi o'rnini tahlil qilish uning bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ahamiyatini yanada oydinlashtiradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiy ma'naviy qiyofasi nafaqat bilim berish sifatiga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy identitetni shakllantirish pedagogik tayyorgarlikning strategik vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy identitetning shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri - pedagogik muhitdir. Ta'lim muassasasidagi ma'naviy iqlim, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar, jamoadagi axloqiy me'yorlar hamda rahbariyatning ma'naviy pozitsiyasi talabalarning shaxsiy kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar ta'lim muassasasida adolat, hurmat, mas'uliyat va hamkorlik ruhi ustuvor bo'lsa, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy identiteti ham barqaror shakllanadi [2].

Bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy-axloqiy identitetning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ham muhim ilmiy vazifadir. Ulardan biri - pedagogik mas'uliyat hissining yuqori darajada bo'lishi. O'qituvchi nafaqat bilim berish, balki

o'quvchilar taqdiri, ularning ma'naviy tarbiyasi va shaxsiy kamoloti uchun javobgar ekanini chuqur anglashi lozim. Shu ma'noda, ma'naviy-axloqiy identitet o'qituvchining kasbiy burchini ongli ravishda qabul qilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy identitetning shakllanishida namuna (rol modeli) omili muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida talabalar tajribali, ma'naviy yetuk, kasbiy madaniyati yuqori bo'lgan ustozlarni kuzatib, ularning xulq-atvorini, muomalasini va qadriyatlarini o'rganadilar. Bu jarayon identifikatsiya mexanizmi orqali amalga oshib, talabalarning shaxsiy ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ma'naviy-axloqiy identitetni shakllantirishdagi o'rnini alohida ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar insonning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odatlar va ma'naviy an'analari bilan bog'liq bo'lib, shaxsning ma'naviy o'zligini mustahkamlaydi. O'zbekiston sharoitida vatanparvarlik, kattalarga hurmat, oilaga sadoqat, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va insoniylik kabi qadriyatlar bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy identitetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlari, tinchlik, adolat, tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan tamoyillarni o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi va global jamiyatda faol, ma'naviy barqaror shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ilmiy konsepsiyalar nuqtai nazaridan ma'naviy-axloqiy identitetni tahlil qilishda konstruktivizm, kompetentlikka asoslangan yondashuv, aksiologik yondashuv va loyihaga asoslangan ta'lim konsepsiyalari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, loyihaga asoslangan ta'lim bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni amaliyot orqali shakllantirish imkonini beradi. Talabalar ijtimoiy, ma'naviy yoki ta'limiy loyihalarni amalga oshirish jarayonida jamoaviy ishlash, mas'uliyatli qaror qabul qilish, ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanish va ma'naviy qadriyatlarni amalda namoyon etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Amaliyotdan misol sifatida bo'lajak o'qituvchilarning maktablarda amaliy pedagogik faoliyat olib borishi, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishi va volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanishini keltirish mumkin. Bunday faoliyat turlari ularda rahbarlik qobiliyati, ijtimoiy mas'uliyat, hamdardlik va fidoyilik kabi ma'naviy sifatlarni mustahkamlaydi. Ma'naviy-axloqiy identitetni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy raqamli muhitda bo'lajak o'qituvchilar axborotni tanqidiy tahlil qilish, virtual makonda axloqiy me'yorlarga rioya qilish va raqamli madaniyatni shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu esa ularning ma'naviy barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Элкінд Д. Эрик Эриксон и восемь стадий человеческой жизни / [Пер. с. англ.] - М.: Когито-центр, 1996.
2. Белінская Е.П. Идентичность личности в условиях социальных изменений: дисс. ... доктора психологич. наук / Е.П. Белінская: Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова. - М., 2006. - 479 с.
3. Аверкин А.Н., Зайченко О.М. Мотивационное управление в образовании. Народное образование. 2012. №8. – С. 133-147.
4. Rajabov B.J. “Ta’lim sifatini yaxshilashda erishilgan natijalardan samarali foydalanish”. Monografiya. Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2017. 136 bet.
5. Tojiboeva D. Global miqyosda ta’lim rolining ortishi va o’qituvchi-pedagoglarga qo’yiladigan zamonaviy talablar. Zamonaviy ta’lim / Современное образование, 2017, №4.
6. Блинова Т.Л., Подчиненов И.Е. Когнитивно-информационная парадигма обучения // Педагогическое образование в России, 2018. – № 8. – С. 49-54.; 51-б.
7. Зиёмухаммадов Б. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент, Турон-Иқбол, 2006. – 112 б.
8. Ибраимов Х., Куронов М. Умумий педагогика. Дарслик. – Т.: “Саххоф”, 2023. – 416 бет.
9. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. – Москва, Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003. – Кн. 1: Общие основы. Процесс обучения. – 576 с.